

Mamakatimizda mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirishning tashkiliy-huquqiy asoslari

Shuxratjon Qobijon o'g'li Fozilchayev
TMI

Annotatsiya: Maqolada mahalliy byudjetlarni qo'shimcha manbalardan foydalanish tizimini takomillashtirish masalalarining umumnazariy asoslari yoritilgan bo'lib, unda mahalliy byudjetlarni qo'shimcha manbalardan foydalanish bo'yicha hukumatimiz tomonidan so'nggi yillarda qabul qilingan me'yoriy-huquqiy asoslariga to'xtalib o'tilgan va ularni takomillashtirish yuzasidan takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: mahalliy byudjetlar, byudjet daromadlari, qo'shimcha manbalar, byudjet tizimi, daromadlar bazasi, hududlarni kompleks rivojlantirish, barqaror moliyalashtirish, byudjetlararo munosabatlar, byudjet balansiligi, byudjet tizimi byudjetlari daromadlarini prognoz qilish va xarajatlarini rejalashtirish, fiscal siyosat.

Organizational and legal framework for the formation of local budget revenues in our country

Shukhratjon Qobijon o'glu Fozilchayev
TMI

Abstract: The article discusses the general foundations for improving the system of additional sources of local budgets, focuses on the legal framework adopted by our government in recent years on the use of additional sources of local budgets, and gives suggestions for their improvement.

Keywords: local budgets, budget revenues, additional resources, budget system, revenue base, integrated regional development, sustainable financing, interbudgetary relations, budget balance, budget system, budget revenue forecasting and expenditure planning, budget policy.

So'nggi yillarda mamlakatimizda byudjet tizimida olib borilayotgan islohotlar mahalliy byudjetlar daromad manbalarini barqarorligini ta'minlashga asos bo'lib hisoblanmoqda. Hozirgi kunda hududlarni moliyaviy barqarorligini ta'minlashda mahalliy byudjetlarning ahamiyati yanada ortib bormoqda, shu sababli mahalliy byudjetlarni daromadlarini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Mahalliy byudjetlarning daromad bazasini tubdan mustahkamlash va no-markazlashtirish asosida hududlarni kompleks rivojlantirishni barqaror moliya-

lashtirish, byudjetlararo munosabatlarni yanada takomillashtirish, mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga ko'maklashish, yangi ish joylari yaratish hamda aholi bandligini ta'minlash, muhandislik-kommunikatsiya, yo'l-transport va ijtimoiy infratuzilmani jadal rivojlantirish hisobiga soliq salohiyatini kengaytirish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda ularning mas'uliyatini oshirishni ta'minlash asosiy maqsadimizdir. [1]


So'nggi yillarda mamlakatimizda byudjet va ijtimoiy siyosatning uyg'unligini ta'minlash maqsadida moliya tizimining sohalarini, jumladan byudjet tizimini va uning tarkibiy qismi hisoblangan mahalliy byudjetlarni samarali boshqarish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu holat davlat ijtimoiy siyosatining joylardagi ijobiy ijrosini ta'minlash, shuningdek, hududiy iqtisodiyot muammolari keskinlashuvining oldini olishni hamda mahalliy byudjetlar huquq va majburiyatlarning kengayib borishi sharoitida ularning moliyaviy imkoniyatlarini yaxshilash uchun zamin yaratadi.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida uchinchi ustuvor yo'nalish "Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari" – deb nomlanib, unda xarajatlarning ijtimoiy yo'naltirilganini saqlab qolgan holda davlat byudjetining barcha darajalarida mutanosiblikni ta'minlash, mahalliy byudjetlarning daromad qismini mustahkamlashga qaratilgan byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilishi ko'zda tutilgan[1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2019 yilda mamlakatimizni rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Parlamentga Murojaatnomasini ma'ruzasida "...Byudjyet mablag'laridan samarali foydalanish tizimini yanada takomillashtirish zarur. Byudjyet hisobidan mablag' ajratiladigan har qanday dastur yoki loyihaning sifat va miqdor ko'rsatkichlaridan iborat, natijaga yo'naltirilgan indikatorlari bo'lishi kerak"[3] - deya ta'kidlab o'tganliklari bugungi kunda mahalliy byudjetlarda yechimini kutayotgan masalalar mavjudligini ko'rsatadi.

Bugungi kunda mahalliy byudjetlar uchun zarur mablag'lar ko'p hollarda davlat byudjetidan qoplanayotganligi, mahalliy byudjetlar barqaror emasligi, davlat byudjeti mablag'larini samarali foydalanish zarurligi xaqida Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ma'ruzalarida "...Davlat byudjeti o'lchovsiz emas, mablag'larni qattiq tejash, belgilangan maqsad uchun va oqilona ishlatishni ta'minlash zarur. Bu - hammaga ravshan va rad etib bo'lmaydigan haqiqat" [3] - deya aytib o'tgan edilar.

Quyidagi 1-rasmda O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining tuzilish ifodalangan.



1- rasm. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining tuzilishi[5]

Mahalliy byudjetlarga respublika byudjetidan beriladigan ajratmalar iqtisodiy mustaqillik darajasiga u qadar salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Uning ko'lami va ta'sir doirasi donor hududlar yoki repitsient hududlar imkoniyatlariga bog'liq.

Mahalliy byudjetlar umumdavlat iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarini amalga oshirishda, birinchi navbatda, ijtimoiy infrastrukturani saqlash va rivojlantirishga davlat mablag'larini taqsimlashda alohida ahamiyatga ega.

Mahalliy byudjetlar moliyaviy barqarorligi tushunchasi birinchi bor akademik G.B.Polyak tomonidan taklif etilgan. Olimning fikriga ko'ra, hududiy byudjetlarning barqarorlik darajasi minimal byudjet xarajatlarini qoplash uchun zarur bo'lgan mablag'lar hajmi bilan belgilanadi.[4]:

$$R_m = DS + DR + Id$$

R_m - Xarajatlar summasi;

DS - o'z daromadlari miqdori;

DR - tartibga soluvchi daromadlari miqdori;

Id - qo'shimcha manbalar, (zaiflashgan byudjetlarning keskin holatlarida).

Mahalliy byudjetlar davlatning iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarini amalga oshirishda, birinchi navbatda, davlat mablag'larini taqsimlash va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bizning fikrimizcha, byudjetga "Byudjet - turli darajadagi markazlashtirilgan pul mablag'lari fondini vujudga keltirish, taqsimlash va foydalanishga oid asosiy moliyaviy reja bo'lib, u tegishli davlat yoki mahalliy idora tomonidan ishlab chiqiladigan hamda tasdiqlanadigan yuridik

hujjatdan iborat[6]” deb ta’rif berilishida aynan mahalliy byudjetlarning o‘ziga xos xususiyatlari namoyon bo‘ladi.[7]

Mahalliy byudjetlar O‘zbekiston Respublikasining byudjet tizimining muhim tarkibiy qismini tashkil etadi. Ular davlat hokimiyatining har bir mahalliy organi o‘z faoliyatini amalga oshirishi uchun uning ixtiyorida aniq moliyaviy baza yaratadi. Mahalliy byudjetlar tizimi mahalliy talab extiyojlarni tuliqroq hisobga olish hamda davlat tomonidan markazlashgan tartibda amalga oshiradigan tadbirlar bilan to‘g‘ri olib borish imkonini beradi.[8]

Mahalliy byudjetlarning daromadlari - mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlari oldidagi muhim strategik ahamiyatga molik bo‘lgan vazifalarning amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan markazlashtirilgan pul fondini shakllantirish bilan bog‘liq pulli munosabatlar shaklidir.[9]

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 dekabrda “Mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini oshirish, mahalliy byudjetlarga tushumlarning to‘liqligini ta’minlash bo‘yicha soliq va moliya organlari javobgarligini kuchaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5283 -sonli Farmonidan

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni. 2017 yil 7 fevral.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev” 2019 yilda mamlakatimizni rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Parlamentga Murojaatnomasini 28-dekabr 2018-yil

4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasi

5. O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi, 2018 yil 26 dekabr.

6. Malikov T.S., Haydarov N.H. Davlat byudjeti. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2007. 89-b

7. Алляров С. Р., Зайнитдинов С. М. Ў. Иқтисодий ўсишга таъсир кўрсатувчи омиллар ва уларнинг таснифи //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 11. – С. 1156-1169.

8. Алляров С. Р., Кандахарова Ш. Н. ПЕРСПЕКТИВЫ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ БЮДЖЕТНЫХ СРЕДСТВ В УПРАВЛЕНИИ

ГОСУДАРСТВЕННЫМИ ФИНАНСАМИ //СТОЛИЦА НАУКИ. – 2021. – Т. 3. – С. 4.

9. Аллаяров С. Теоретическое исследование оптимальной фискальной и денежно-кредитной политики для стимулирования экономического роста // Научный журнал финансов и бухгалтерского учета. – 2018. – Т. 9. – No 8. – С. 206-212.

10. Аллаяров С., Набиев Е., Аллаяров С. Амануллаева Ю. (2020) Пути улучшения налогового механизма для обеспечения финансовой безопасности страны //International Journal of Advanced Science and Technology. – 2020. – Т. 29. – No 7. – С. 7849-7855.

11. Аллаяров С., Аллаяров С., Юлдашева У., Маджидов Н. (2020). Оценка эффективности результатов бюджетной политики Республики Узбекистан. Международный журнал передовых наук и технологий, 29(7), 7920-7926.

12. Сатторов Б. К., Аллаяров С. Р. Развитие экономики Узбекистана в условиях мировых интеграционных процессов //Наука, техника и образование. – 2017. – Т. 1. – №. 5 (35). – С. 98-100.

13. Аллаяров С. Р., Мардонов Ш. Х., Абдурахимова Г. М. РЕТРОСПЕКТИВНЫЙ И ЦЕЛЕОРИЕНТИРОВАННЫЙ ПОДХОДЫ К ОЦЕНКЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ФИСКАЛЬНОЙ ПОЛИТИКИ //Экономика и социум. – 2020. – №. 4. – С. 138-147.